

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU.
ILMIY
XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2025
FILOLOGIYA

НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

ADABIYOTSHUNOSLIK

M.A.Jo'rayeva	
Safarnomaning paydo bo'lishi va janr sifatida shakllanishi	5
S.A.Xaqnazarova	
Abdulla Sher lirikasida formal an'analar	8
S.A.Odilova	
Badiiy asarda ikkinchi darajali personajlar talqini	12
B.N.Isakova	
O'tkir Hoshimov va Jek London ijodida mavzular ko'lami qiyosiy tahlili	15
Sh.R.Maxamadjonova	
Adabiyotda aforizm tushunchasi va uning o'ziga xos xususiyatlari	19
M.S.A'zamjonova	
Kitobxon kodi: badiiy asarda psixologizm	22
G.Xaydarova	
"Ona lochin vidosi" romanida kolliziya konflikt	26
М.Б.Ботирова	
XX asr o'zbek adabiyotida psixologik taxlilning o'ziga xos xususiyatlari	28
A.Baba	
Comparison of eastern and western variants of the <i>Koroglu</i> epic.....	31

TILSHUNOSLIK

I.M.Azimov	
Qayum ramazon va uning "O'zbek tilining birlashgan imlo qoidalari" risolasi xususida	37
M.F.Yo'ldasheva	
Jek London asarlari tarjimalarining lingvopragmatik tadqiqi.....	43
U.T.Muratbaeva	
Lexical and semantic features of the expression of ethical concepts in the karakalpak language	50
S.B.Hafizov	
The semantic network of "head" in english and uzbek based on lexical field comparison.....	54
R.T.O'rinboyeva	
Qo'shrabot tumani shevasining fonetik xususiyatlari	59
A.B.Vosiljonov	
Farg'ona viloyati shevalari bazasini yaratishning umumiy nazariy asoslari	63
M.V.Ahmadova	
Syllable rhythm and prosody: the theory of classification of languages by rhythm and the manifestation of isochrony in the poetic system	68
M.N.Najmiddinova	
Linguopragmatic analysis of phraseological units and idioms relating to the concept of hospitality in english and uzbek.....	73
N.A.Beknazarova, M.Y.Madiyeva	
The definition and key components of communicative competence in language learning.....	85
X.A.Sarimsokov	
Sport sharhlarini asosini tashkil qiluvchi leksik birliklarning diaxron tadqiqi	88
S.A.Raxmonberdiyeva	
Qurilish sohasiga oid ingliz va o'zbek tillaridagi leksik birliklarning lingvistik tahlili	93
X.A.Asqaraliyeva	
Media-kommunikativ muloqotda paralingvistik vositalar	96
H.X.Bozorov	
O'zbek xalq ertaklaridagi obrazlar: lingvopoetik, badiiy va falsafiy tahlil	100

**ABDULLA SHER LIRIKASIDA FORMAL AN‘ANALAR****ФОРМАЛЬНЫЕ ТРАДИЦИИ В ЛИРИКЕ АБДУЛЛЫ ШЕРА****FORMAL TRADITIONS IN THE LYRICS OF ABDULLAH SHER****Sayyora Xaqnazarova Abduraxmonovna** 

Farg‘ona davlat universiteti, katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Abdulla Sher lirikasidagi formal an‘analar va ularning turlari xususida fikr yuritilgan. Formal an‘ana turlaridan bo‘lgan tasviriy ifoda va tasviriy vositalarning shoir she‘rlari misolida tahlilga tortilgan. Shoir lirikasida epitet, sifatlash, jonlantirish, giperbola, metafora, o‘xshatish, mubolag‘alardan foydalanib, she‘rlaridagi badiiy ta’sirchanlikni, badiiy bo‘yoqdorlikni oshiradi. Adabiyotshunos olimlarning shoir ijodi xususidagi ilmiy-nazariy qarashlari misollar yordamida tahlil qilingan. Formal an‘ananing qo‘llashdagi shoirning o‘ziga xos xususiyatlari ko‘rsatib o‘tilgan. Shoirning formal an‘ananing qo‘llashdagi badiiy mahorati ilmiy tarzda tahlil qilingan.

Аннотация

В данной статье рассматриваются формальные традиции и их виды в лирике Абдуллы Шера. На примере стихов поэта проанализированы такие виды формальных традиций, как изобразительные выражения и художественные средства. В лирике поэта использование эпитетов, определений, олицетворений, гипербол, метафор, сравнений и преувеличений усиливает художественную выразительность и образность стихотворений. На основе примеров проанализированы научно-теоретические взгляды литературоведов на творчество поэта. Также показаны особенности поэта в применении формальных традиций. Художественное мастерство поэта в использовании формальных традиций рассмотрено в научном аспекте.

Abstract

This article examines the formal traditions and their types in the lyrics of Abdulla Sher. Using examples from the poet's works, the study analyzes such types of formal traditions as figurative expressions and artistic devices. The poet's use of epithets, descriptive adjectives, personification, hyperbole, metaphors, similes, and exaggeration enhances the artistic expressiveness and imagery of his poetry. The scientific and theoretical perspectives of literary scholars on the poet's work are analyzed through specific examples. The article also highlights the poet's distinctive features in applying formal traditions. The poet's artistic mastery in employing these formal traditions is examined from an academic perspective.

Kalit so‘zlar: an‘ana, formal an‘ana, tasviriy ifoda, tasviriy vositalar estetik ideal, tasviriy vositalar, epitet, jonlantirish, metafora, o‘xshatish, sifatlash, badiiy bo‘yoqdorlik, badiiy ta’sirchanlik, falsafiy mushohada.

Ключевые слова: традиция, формальная традиция, изобразительное выражение, художественные средства, эстетический идеал, эпитет, метафора, сравнение, определение, художественная образность, художественная выразительность, философское размышление.

Key words: tradition, formal tradition, figurative expression, artistic devices, aesthetic ideal, epithet, personification, metaphor, simile, definition, artistic imagery, artistic expressiveness, philosophical reflection.

KIRISH

Tasviriy ifoda va tasviriy vositalar an‘ananing formal turiga kiradi. Shoir ijodiga mansub bo‘lgan ba’zi she‘rlarning formal an‘ana turlariga xos tarzda tahlil qilamiz. Formal an‘ana ham qo‘llanilish darajasiga qarab bir necha turlarga bo‘linadi va biz tahlil jarayonida ularning ba’zilariga to‘xtalib o‘tamiz. Jumladan, maxsus-tasviriy ifodaning epitet (sifatlash) turida shoir o‘zi muhim deb bilgan belgini ko‘rsatish uchun badiiy aniqlovchidan foydalanadi. Shoir “Urushning suvrati” she‘rida tasvir obyektiga quyidagicha ko‘chma ma’nodagi munosabat bildirib, tasvirlanayotgan hodisaga nisbatan emotsiyani oshiradi. Sifatlovchi so‘z aniqlanmish so‘z bilan birikib, o‘z belgilarni unga ko‘chirgan holda hodisaning u yoki bu tomonlarini aniqlaydi:

*Tuproqqa engashgan qurumli osmon,
Yaxlagan zoldirdek quyosh g‘ildirar.
Ko‘z yoshdan namiqqan tunda bedarmon*

ADABIYOTSHUNOSLIK

Zanglagan yulduzlar karaxt dildirar.[1.95.]

“Qurumli osmon”, “yaxlagan zoldirdek quyosh”, “zanlagan yulduzlar” singari betakror sifatlashlar chindan ham urushning suvratiga mos aniq hayotiy chizgilardir. “Qurumli osmon”, “Zanglagan yulduzlar” singari sifatlashlar urushga nisbatan tasviriy ifodani kuchaytirib, urush holatini soʻz orqali yoddan chiqmaydigan tarzda moddiylashtira olgan. Urushning lirik qahramon ruhiyatiga taʼsiri tufayli, quyosh va yulduzlarga nisbatan ham salbiy munosabat bildiriladi.

Daraxtlarni qitiqlab bebosh

Yosh barglarni kuldirar shamol.

Oq bulutni olovyuz quyosh

Boshga tashlar durradek havol.[2.547.]

Jonlantirishning tashxis turidan foydalangan shoir “yosh barglarni kuldirar shamol” satrlarida tabiat manzarasini, togʻ koʻrinishining tasvirini boʻrttirib, yorqin va ravshan tarzda ifodalaydi. Jonlantirishning tashxis usulida jonsiz narsalarni jonlantiriladi. “Olovyuz quyosh” sintaktik figura boʻlib, shoir undan tasviriylilik va emotsionalikni kuchaytirish maqsadida foydalangan. “Olovyuz quyosh” – istiorali sifatlash boʻlib, quyosh-tasvir obyekti, oʻxshatilayotgan narsa, olovyuz – oʻxshagan narsa, quyoshning olovdek issiqligiga ishoradir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tadqiqotchi olim H.Joʻrayevning ushbu fikrlari Abdulla Sher ijodida talqin etilgan lirik qahramonlarga bevosita aloqadordir. Shoirning betakror isteʼdodi, aql-u-zakovati, topqirligi, soʻzamolligi uning adabiy anʼanalarni davom ettirgan holda, uni sayqallab, oʻziga xos yangiliklar kiritganida, sheʼrlariga milliy kolorit xususiyatlarni singdirganligida yaqqol namoyon boʻladi. Aynan shu xususiyatni shoirning “Shoirlik manzarasi” sheʼrida ham kuzatamiz:

Boq, gʻichirlab qadimiy eshik,

Asta chiqib ketadi ilhom...

Qayerdadir chinqirar beshik,

Yulduzlarni toʻsib turar tom... [2.449]

Beshik nega chinqiraydi? Chunki bu chinqiriqda hayotga daʼvat, yorugʻ kelajakka chorlov, yaxshi kunlardan umidvorlik mujassam. Beshik chinqirigʻida, shuningdek, sergaklik va bedorlik aks-sado beradi. “Beshik” – bu bizning milliy mentalitetimizning bir koʻrinishi va bu bilan shoir xalqimizning bolaparvarlik fazilatlarini ham mohirona tarzda tasvirlab bera olgan. Ijodkor sheʼrida insonning nozik qalb tugʻyonlarini va undagi umid uchqunlarini toʻsib turgan, majoziy maʼnodagi “tom”ni, sodda va oddiy soʻzlar majmuasidan foydalangan holda, shoirona oʻxshatish orqali, ifoda etadi. Bundan tashqari, mazkur sheʼrda ijodkor estetik idealini tasvirlashda, oʻxshatish, mubolagʻa, jonlantirish kabi tasviriy ifodalardan ham oʻrinli foydalangan. Beshikning chinqirashi jonlantirish, yulduzlarni toʻsib turar tom jumlasida mubolagʻa mavjud.

“Uning sheʼrlarida hammamizga tanish qishloq manzaralari: yangi sogʻilgan sut hidi anqib turgan hovlilar, tong sabosi yelib turgan sokin dalalar, “tezotar” bedanalar sayrab, dutorning mayin unlari taralayotgan gavjum choyxonalar, pritsepni shildiratib chang koʻtarib kelayotgan traktorning gurillashi birma-bir jonlana boshlaydi”. [3.227.]

Abdulla Sher lirik sheʼrlariga milliy koloritni singdirib, leksik va semantik sathlardan ogʻishgan holda sheʼrlar yaratib, badiiy-estetik maqsadiga erishadi. Badiiy taʼsirchanlik va boʻyoqdorlik shoir sheʼrlarining jonli va toʻlaqonli koʻrinishiga xizmat qiladi:

Qizgʻaldoqli tomini hilpiratgan ul goʻsha

Bolaligim dostonini kuylab turar osmonga;

Somonshuvoqdan chiqqan ismaloq, bugʻdoy – oʻsha,

Faqat oyogʻim yetmas bugun yogʻoch narvong.[2.359.]

Sheʼrdagi “qizgʻaldoqli tom”, “somonshuvoq”, “yogʻoch narvon” kabi soʻzlar millatimizga xoslikni anglatadi va shoir bu bilan sheʼrdagi anʼanaviylilik, milliy oʻziga xoslikni taʼmin etadi. Bundan tashqari “qizgʻaldoqli tom”, “somonshuvoqdan chiqqan ismaloq” birikmalari koʻchimning turlaridan boʻlgan metaforaning sodda koʻrinishidir. Shoir oʻtkir nigohi bilan ilgʻangan oʻxshashlik va aloqadorlik asosidagi koʻchimlar ikkinchi unsur, yaʼni qishloqning oddiy, behasham uylarini koʻz oldimizda gavdalandiradi.

Ijodkor lirikasida arxaik soʻzlardan ham foydalanganining guvohi boʻlamiz. Soʻzlashuvda ishlatilmaydigan arxaik soʻzlardan shoir oʻsha davr muhitini aks ettirishda foydalangan.

Abdulla Sher ijodini kuzatib borgan adabiyotshunos Vohid Zohidov uning ijodi xususida soʻz yuritganda arxaik soʻzlarning koʻp qoʻllanganligini aytib oʻtadi:

“Abdulla Sher sheʼrlarida kamchilik va nuqsonlar yoʻq ekan, degan gap emas, albatta. Ularda baʼzan ohang ketidan quvib, jimji-madorlikka berilib ketish, goho mavzuga yengil tosh qoʻyish, baʼzi oʻrinlarda esa arxaik soʻzlarni meyoridan ortiqcharoq ishlatish hollari koʻzga tashlanadi”. [5.424.]

Adabiyotshunosning ushbu fikriga quydagicha munosabat bildiramiz. Shoir sheʼrlarini tahlil qilish jarayonida biz uning ijodining dastlabki yillarida ana shunday kamchiliklarga yoʻl qoʻyganini guvohi boʻldik. Jumladan, “Kommunistmiz sobit va halol”, “Qonimdagi Lenin shuurin”, “Dubulgʻalar jarangi”, “oʻq-yoʻllarning patida”, “sovutlarning qatida” kabi arxaizmlardan koʻp foydalangan. Lekin shoir baʼzi tarixiy hodisalarni tasvirlashda arxaizmlardan oʻsha davr koloritini berish uchun oʻz oʻrnida foydalangan. Masalan:

Gumburlaydi nogʻora
Ufqqa tahdid qilib.
Yoki:
Ot qoʻyar amirlashkar –
Jaloliddin shiddati! [2.8]

“Nogʻora” va “amirlashkar” kabi soʻzlar Jaloliddin Manguberdi yashagan davrni his qilishimizga, kishilarning soʻzlash tarzi va uslubini anglashimizga yordam beradi. Shoir tarixiy oʻtmish materialini tasvir predmeti qilib olishi uni zamonasidan yuz oʻgʻirgani yoki uzoqlashganini koʻrsatmaydi, balki oʻsha davr ruhiyatini, hodisalarini jonli tarzda namoyon etishini taʼminlaydi.

Abdulla Sher ijodida tasvirlanayotgan obyektning mayda detallariga alohida eʼtibor qaratish bilan xarakterlidir. Unda xalqona uslub, soddalik mavjud va ortiqcha mubolagʻa yoʻq. U kichik detallar orqali, katta narsalarni, yaʼni oddiy tasvirlar orqali yirik muammolarni aks ettirgan. Ijodida tarannum etilgan tabiat tasviri nafaqat inson ruhiyatini koʻrsatish vositasi boʻlib, balki uni falsafiy mushohadaga undaydi:

Yomgʻir yogʻar..... Asta- asta
Yiriklashar tomchilar,
Burchaklarda jon saqlagan
Qishni tinmay qamchilar [2.98.]

Shoir koʻklam yomgʻiri orqali inson ruhiyatidagi oʻzgarishlarni tabiat hodisasiga bogʻliq holda tasvirlaydi. Tabiat bahonasida inson ruhiyatidagi uygʻonishni, uning hissiyotlarini oʻziga xos yoʻsinda tasvirlaydi. Ruhiy holatni aytmay, koʻrsata bilish shoirning oʻziga xosligini, isteʼdodini koʻrsatadi. “Qishni tinmay qamchilar” satrida shoir badiiy orttirish-giperbola vositasida sheʼrning tasviriy ifodasini kuchaytiradi. Badiiy kattalashtirish natijasida tasvirga olingan hodisa toʻgʻrisidagi taassurotni kuchaytiradi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Abdulla Sherni tabiat kuychisi yoki tabiatning rassom shoiri deyish qiyin, lekin tabiat, hayotning boqiyiligini his ettirishi va shu asosda, narsa va mavjudotning, inson umri, tiriklikning maʼnaviy-falsafiy mezoniga aylanishi jihatdan shoir tabiat bilan bogʻliqlikda namoyon boʻladi. Shoir sheʼrlarida tabiatni jonlantirish detallar tarzida mavjud boʻlsa-da, u psixologik kartina va holatlar mazmunini ifodalash uchun xizmat qiladi. Bu hol shoir lirikasidagi inson va tabiat talqinida yetakchi mavqeni tashkil qilmaydi. Shoir baʼzan inson obrazi bilan tabiat tasvirini bir-biriga hamohang tarzda ifodalaydi. Tabiatdagi hodisalar orqali inson ruhiyatida boʻladigan oʻzgarishlarni sheʼrlar mazmuniga singdiradi.

Ijodkor sheʼrlaridagi lirik qahramon shabboda epkinlarida elangan, nur, yorugʻlik, saodat koʻzlariga toʻtiyo qilgan hayotsevar inson obrazidir. Sheʼrlaridagi kurashuvchanlik hissi qahramonni tark etmaydi, u hayotning zalvorli yukiga yengilmaydi, balki olgʻa intiladi. Shoirning oʻzi ham, uning ijodiy tafakkuri ham hech qachon toliqish bilmaydi, uning tuygʻulari ohorli, fikr-mushohadalari ijodiy dovonlarni zabt etish ishtiyoqi bilan chulgʻangan.

ADABIYOTSHUNOSLIK

Abdulla Sherning she'rlarida millatning o'zligi, ruhi, nafasi ufurib turadi. Shoir "Men asrimdan sachragan bir cho'g'" der ekan, butkul borlig'ini so'zga aylantiradi. Shoirning she'rlari tabiat olami bilan bevosita so'zlashadi, unda giyohlar, maysalar shiviri, lolalar tabassumi, yomg'irlar suvrati, shamollar epkini ufurib turadi. Shuning uchun shoir tabiat menga "qal'a", "buyuk qo'rg'on", deb baralla e'tirof etadi. Hassos shoir Muhammad Yusuf uchun lolaqizg'aldoq bir dardkash, bir sirdosh bo'lgan bo'lsa, Abdulla Sher uchun maysalar o'lan to'shakka aylangan:

*Tashvishlardan chekingandek, gohida
Tark etaman bir-ikki kun shahrimni;
G'uluv sezib yuragimning ohida,
Maysazorga jim bosaman bag'rimni.* [1.62]

"Maysazorga jim bosaman bag'rimni" poetik ko'chimning giperbola vositasida shoir lirik qahramoni ruhiy olami to'g'risida taassurotni shakllantiradi va uning hissiyotlarini sintaktik figuralar yordamida ta'sirchanligini oshiradi. Lirik qahramon kechinmalarini, hissiyotlarini haqqoniy, jonli, rang-barang ifodalashda poetik ko'chimlardan samarali foydalanib, badiiy buyoqdorlikni, ta'sirdorlik darajasini kuchaytiradi.

"Chinakam so'z san'atkorlari an'anaviylikning kuchliligi natijasida ommalashgan tasvir vositalari hamda usullaridan qanoatlanmay qoladilar. An'anaviy tashbehlar va boshqa tabiiy unsurlarning nisbatan cheklangan maydonida insoniy kechinmalarining rang-barang va bepoyon ufqlariga intiladilar. Qalb kechinmalarini haqqoniy va yorqin ifodalash, ruhiy-psixologik talqinni birinchi planga qo'yishi shoir lirik qahramonini she'rxon bilan ma'naviy-hissiy yaqinlashtiradi, ularni sirdosh va dildosh qiladi. Shoir "men"ining umuminsoniylik kasb etishida buning ahamiyati kattadir". [4.45]

Darhaqiqat, shoir lirik "men"i shunchaki muallif ovozi bo'lib qolmay, balki o'quvchi bilan ruhiy mushohada yurituvchi subyektga aylanadi. Bu esa she'rxon bilan chuqur hissiy aloqaning o'rnatilishiga, ya'ni dildoshlik darajasiga olib keladi. Lirik qahramonning kechinmalari orqali insoniy umumiylik – ya'ni har bir kishiga xos, ammo so'z orqali ifodalanishi mushkul bo'lgan tuyg'ular ifoda topadi. Shu ma'noda, shoir "men"ining umuminsoniylik darajasiga ko'tarilishi uning badiiy mahorati, psixologik teranligi va ruhiy halolligi bilan chambarchas bog'liq.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Abdulla Sher lirikasida formal an'analardan, ya'ni badiiy tasvir va ifoda vositalardan o'z o'rnida poetik mahorat bilan foydlangan. Shoir formal an'ana turlaridan she'rlarining rang-barangligi va ta'sirchanligi kuchaytirish maqsadida foydalangan. Abdulla Sher lirikasidagi an'ananing barcha turlari shoir ijodining o'ziga xos xususiyatlarini, shoir ijodining individual tomonlarini, uning badiiy mahoratini namoyon qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдулла Шер. Гул йиллар, булбул йиллар. Урушнинг суврати. Кичик сайланма. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2012. – Б.95.
2. Абдулла Шер. Танланган асарлар. Улкан тоғ. Шеърлар, дostonлар.–Тошкент: Sharq, 2021. – Б.547.
3. Абдулла Шер. Танланган асарлар. Шоирлик манзараси. Шеърлар, дostonлар.–Тошкент: Sharq, 2021.– Б.449.
4. Абдуллаев О. Янги чашмалар. – Тошкент: Шарқ юлдузи. – 1974. – № 12. – Б. 227.
5. Абдулла Шер. Танланган асарлар. Орзунинг сандиқлари. Шеърлар, дostonлар. – Тошкент: Sharq, 2021.–Б. 359.
6. Жўраев Ҳ. Лирик қаҳрамон ва муаллиф шахсияти. – Тошкент: Фан нашриёти, 2008. – Б. 45.
7. Зоҳидов В. Ўзбек бадиияти зарварақлари. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985.– Б. 424.
8. Абдулла Шер. Танланган асарлар. Сарбозча. Шеърлар, дostonлар.–Тошкент: Sharq, 2021. – Б.8.
9. Абдулла Шер. Танланган асарлар. Ёмғир ёғар. Шеърлар, дostonлар.– Тошкент: Sharq, 2021. – Б.98.
10. Абдулла Шер. Гул йиллар, булбул йиллар. Роз. Кичик сайланма. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2012. – Б.62.